

**AXBOROT ERKINLIGI VA SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGI
O'RTASIDAGI MUVOZANAT MASALASI: O'ZBEKISTON OAV
AMALIYOTI TAHLILI**

Sevara Xusniddinova Faxriddin qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

magistratura talabasi

sevarakhushniddinova1@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada jurnalist erkinligi va shaxsiy hayot daxlsizligi o'rtasidagi muvozanat muammosi yoritiladi. O'zbekiston OAVlarida aybsizlik prezumpsiyasi, mashhurlik ekspluatatsiyasi va shaxsiy ma'lumotlarni oshkor etish kabi muammolar tahlil qilinadi. UNESCO tamoyillari va Yevropa sudi qarorlari asosida takliflar beriladi.

Kalit so'zlar: jurnalist erkinligi, shaxsiy hayot, axborot etikasi, qonunchilik.

Аннотация: В статье рассматривается проблема баланса между свободой журналиста и неприкосновенностью частной жизни. Анализируются такие проблемы в узбекских СМИ, как презумпция невиновности, эксплуатация популярности и разглашение личной информации. На основе принципов ЮНЕСКО и решений Европейского суда предлагаются рекомендации.

Ключевые слова: свобода журналиста, частная жизнь, этика информации, законодательство.

Abstract: This article addresses the issue of balancing journalistic freedom with the right to privacy. It analyzes problems in Uzbek media, such as violation of the presumption of innocence, exploitation of public figures, and disclosure of personal data. Recommendations are based on UNESCO guidelines and decisions of the European Court of Human Rights.

Keywords: journalistic freedom, privacy, media ethics, legislation.

KIRISH

Zamonaviy dunyoda ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy hayotga ta'siri tobora ortib bormoqda. Axborot oqimining kuchaygani, ijtimoiy tarmoqlarning kengaygani va raqamli texnologiyalarning jurnalistika maydoniga kirib kelgani natijasida OAV vakillari shiddatli raqobatga yuz tutmoqda. Ayniqsa, “birinchi bo‘lib xabar berish”, “diqqatni tortish”, “reyting yig‘ish” kabi motivatsiyalar jurnalist faoliyatining asosiy mezonlariga aylangan. Bu esa axborotning mazmuniy sifati va etik mas’uliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda¹.

Bunday muhitda jurnalist erkinligi tamoyili — ya’ni erkin fikr bildirish, axborot olish va tarqatish huquqi — demokratik jamiyatlar uchun muhim qadriyat bo‘lib qolmoqda. Ayni vaqtida inson sha’ni, qadr-qimmati va shaxsiy hayot daxlsizligini ta’minalash masalasi ham inson huquqlari tizimining ajralmas qismi sifatida qaraladi. Mazkur ikki huquq to‘qnash kelgan holatlarda, jurnalist qanday yo‘l tutishi kerak: jamoatchilik manfaatini ko‘zlab shaxsiy sirlarni ommaga havola qilsinmi yoki axloqiy-chegaraviy tamoyillarga rioya qilgan holda ma’lumotdan voz kechsinmi? Ana shu ziddiyat ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi².

O‘zbekiston misolida olib qaralganda, oxirgi yillarda OAV erkinligiga oid yutuqlarga qaramay, jurnalistlarning shaxsiy hayotga oid tafsilotlarni yoritishda ehtiyyot choralari yetarli emasligi ko‘zga tashlanmoqda. Masalan, jinoyat ishlari bo‘yicha tergov-surishtiruvlar davomida guman qilinayotgan shaxsning suratlari, familiyalari va ba’zan esa oilaviy holatlari e’lon qilinmoqda. Bu esa O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasi (shaxsiy hayot daxlsizligi) va Jinoyat-protsessual kodeksidagi aybsizlik prezumpsiyasi tamoyillariga zid holdir³.

Jahon tajribasiga murojaat qilganda, Yevropa Inson huquqlari sudi (YIHHS) tomonidan ishlab chiqilgan qator me’zonlar mavjud: axborotning jamoatchilik uchun dolzarbliji, shaxsning mashhurligi darajasi, axborot manbasining

¹ Jamolov, J. (2012). *Chet til o‘qitish metodikasi*. O‘qituvchi.

² UNESCO. (2019). *Media Ethics and Global Justice in the Digital Age*. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization.

<https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000371482>

³ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (1992). *O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi* (27-modda). Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

<https://lex.uz/docs/100841>

www.tadqiqotlar.uz

ishonchliligi, axborotning ommaviy manfaati bilan shaxsiy huquq o‘rtasidagi balans. Aynan shu me’zonlar asosida shaxsiy hayot daxlsizligi va jurnalist erkinligi o‘rtasidagi muvozanat belgilanadi⁴. O‘zbekistonda esa bu mezonlar amaliyatga hali keng tatbiq etilmagan.

Shuningdek, soni ortib borayotgan blogerlar va ijtimoiy tarmoqlardagi "fuqaro jurnalistikasi" vakillari o‘z materiallarini jurnalistika deb taqdim etib, ko‘plab huquqiy va axloqiy xatolarga yo‘l qo‘ymoqda⁵. Ular ko‘pincha sud qarorisiz shaxslarni aybdor deb ko‘rsatadi, maxfiy videolarni tarqatadi, mashhurlik ortidan inson sha’nini poymol qiluvchi sarlavhalar yaratadi. Bu holatlar esa faqat ommaviy axborot vositalariga emas, balki butun jamiyat axborot madaniyatiga putur yetkazmoqda.

Shu bois, mazkur maqola jurnalist erkinligi va shaxsiy hayot daxlsizligi o‘rtasidagi muvozanatni huquqiy va axloqiy mezonlar asosida o‘rganishga qaratilgan. Tahlil obyekti sifatida O‘zbekiston qonunchiligi, YIHHS qarorlari, UNESCO tamoyillari, hamda amaliy keyslar tanlandi. Maqsad — jurnalistlar uchun huquqiy va axloqiy yondashuvlar asosida muvozanat modelini ishlab chiqish va uni milliy OAV kontekstida amaliy taklif sifatida ilgari surishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Jurnalist erkinligi va shaxsiy hayot daxlsizligi o‘rtasidagi muvozanatga oid ilmiy va normativ-huquqiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu ikki qadriyat nafaqat inson huquqlari tizimining markazida turadi, balki jurnalistikaning ijtimoiy mas’uliyat darajasini ham belgilaydi. Ilmiy manbalarda bu muvozanat ko‘pincha "axborot tarqatish erkinligi" va "axborotdan himoyalanish huquqi" qarama-qarshiligi sifatida tahlil qilinadi⁶.

Milliy adabiyotlar tahlilida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (27-moddasi — shaxsiy hayot daxlsizligi, 29-moddasi — axborot olish huquqi),

⁴ European Court of Human Rights. (2004). *Von Hannover v. Germany*. Application no. 59320/00. <https://hudoc.echr.coe.int/eng?i=001-61553>

⁵ Rasulov, H. (2023). O‘zbekiston jurnalistikasida huquqiy savodxonlik muammolari. *OAV va Huquq jurnali*, 2(4), 52–59.

⁶ Berdiev, A. (2022). *Ommaviy axborot vositalari va fuqarolarning huquqiy madaniyati*. Toshkent: Adolat nashriyoti.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

"Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida"gi va "Shaxsiy hayot daxlsizligi to‘g‘risida"gi qonunlar asosiy huquqiy tayanch sifatida qayd etiladi. Shuningdek, Jinoyat-protsessual kodeksdagi aybsizlik prezumpsiysi tamoyili jurnalistlar tomonidan ko‘pincha buzilishi, sud qarorisiz shaxsni aybdor deb ko‘rsatish holatlari tez-tez uchrab turgani aytildi⁷.

Xalqaro adabiyotlarda esa Yevropa inson huquqlari konvensiyasining 8-moddasi (shaxsiy hayotni hurmat qilish huquqi) va 10-moddasi (so‘z erkinligi) orasidagi murakkab balansning sudlar orqali shakllanishi ko‘plab keyslar misolida yoritilgan. Jumladan, *Von Hannover v. Germany* (2004), *Baka v. Hungary* (2016) va *Mammadov v. Azerbaijan* (2014) qarorlari orqali Yevropa sudi bu masalada muhim pretsedentlar yaratgan⁸.

Ushbu adabiyotlar tahlili natijasida quyidagi asosiy ilmiy muammo aniqlanadi: jurnalistlar ko‘pincha “jamoatchilik manfaatini ko‘zlash” niqobi ostida insonning shaxsiy daxlsizligiga tajovuz qilmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda faol bo‘lgan blogerlar va ommaviy axborot vositalari tomonidan sud ishi davomida, hali ayblov isbotlanmasdan shaxsni “jinoyatchi” deb ko‘rsatish holatlari etika va huquqiy normalarni buzmoqda⁹.

Metodologik yondashuv sifatida mazkur tadqiqotda quyidagi ilmiy-uslubiy asoslar qo‘llanildi:

1. **Normativ-huquqiy tahlil** — milliy va xalqaro qonun hujjatlari solishtirildi;
2. **Qiyosiy-huquqiy tahlil** — O‘zbekiston tajribasi xalqaro amaliyot bilan taqqoslandi;
3. **Keys-metod** — Yevropa sudi qarorlari, O‘zbekiston OAV amaliyoti asosida real holatlar tahlil qilindi;

⁷ European Court of Human Rights. (2004). *Von Hannover v. Germany*. Application no. 59320/00. Retrieved from <https://hudoc.echr.coe.int/eng?i=001-61553>

⁸ European Court of Human Rights. (2016). *Baka v. Hungary*. Application no. 20261/12. Retrieved from <https://hudoc.echr.coe.int/eng?i=001-161304>

⁹ European Court of Human Rights. (2014). *Mammadov v. Azerbaijan*. Application no. 15172/13. Retrieved from <https://hudoc.echr.coe.int/eng?i=001-144124>

4. **Ekspert kontent-tahlil** — Huquqshunos va jurnalist olimlar (Habibullo Rasulov, A. Berdiev) fikrlari tahlilga tortildi¹⁰;

5. **Etik-analitik yondashuv** — UNESCO va IFJ (International Federation of Journalists) tomonidan ishlab chiqilgan media etika standartlari asosida baho berildi¹¹.

Tadqiqot metodlari jurnalist faoliyatining huquqiy chegaralarini aniqlash va O‘zbekiston sharoitida muvozanatli yondashuv ishlab chiqishga qaratilgan bo‘lib, ayni vaqtda xalqaro tajribadan andoza sifatida foydalanishga asoslanadi.

NATIJALAR

Tadqiqot davomida olib borilgan kontent tahlillari va real keyslar asosida aniqlanishicha, O‘zbekiston ommaviy axborot vositalarida jurnalist erkinligi va shaxsiy hayot daxlsizligi o‘rtasidagi nozik muvozanat ko‘plab hollarda buzilmoqda. Ayniqsa, sud qarorisiz gumon qilinayotgan shaxslar haqida "jinoyatchi", "firibgar", "qotil" kabi iboralar bilan sarlavhalar berilishi odatiy holga aylangan. Bu esa O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasi va Jinoyat-protsessual kodeksining 23-moddasida mustahkamlangan aybsizlik prezumpsiysi tamoyiliga ziddir¹². 2023 yilgi Toshkent viloyatida sodir bo‘lgan oilaviy mojaro bo‘yicha ommaviy xabarlarda ayol gumonlanuvchi sud qarorisiz aybdor sifatida ko‘rsatilgani bunga yaqqol misoldir¹³.

Shuningdek, jurnalistlar va blogerlar tomonidan ruxsatsiz foto va video materiallarning tarqatilishi hollari ham ko‘plab kuzatilmoqda. Shaxsiy turar joy, shifoxona, dafn marosimi yoki oila a’zolarining yig‘lagan holatlari tasvirlangan lavhalar ijtimoiy tarmoqlarda ommaga ochiq tarzda e’lon qilinmoqda. Bunday holatlar “Shaxsiy hayot daxlsizligi to‘g‘risida”gi qonunning 9-moddasiga ham, xalqaro huquq me’yorlariga ham zid bo‘lib, shaxs sha’ni va daxlsizligiga bevosita

¹⁰ Rasulov, H. (2023). O‘zbekiston jurnalistikasida huquqiy savodxonlik muammolari. *OAV va Huquq jurnali*, 2(4), 52–59.

¹¹ UNESCO. (2019). *Media Ethics and Global Justice in the Digital Age*. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization. Retrieved from <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000371482>

¹² O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (1992). *O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi* (26-moddasi). Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. Retrieved from <https://lex.uz/docs/100841>

¹³ O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. (1994). *JPK – Aybsizlik prezumpsiysi* (23-moddasi). Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. Retrieved from <https://lex.uz/docs/111457>

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

putur yetkazadi¹⁴. Yevropa Inson huquqlari sudi *Peck v. United Kingdom* (2003) qarorida hatto jamoat joyida olingan videotasvir ham shaxsiy hayot daxlsizligini buzishi mumkinligini e'tirof etgan¹⁵.

Yana bir e'tiborga molik holat — mashhurlik ekspluatatsiyasi orqali inson daxlsizligining buzilishi. O'zbekiston OAVlarida taniqli insonlar, jumladan san'atkorlar, sportchilar va siyosatchilarning oilaviy muammolari, sog'lig'i, farzandlari bilan bog'liq tafsilotlar keng yoritiladi. Bu esa axborotning jamoatchilik uchun dolzarbliги chegarasidan chiqib, senzatsiyaga qaratilgan, shaxs sha'ni va qadr-qimmatiga putur yetkazuvchi amaliyatga aylanmoqda. Bu kabi yondashuvlar, UNESCO va Yevropa sudi tomonidan belgilangan axborot etikasi mezonlariga mutlaqo zid hisoblanadi¹⁶.

Ayniqsa, voyaga yetmagan bolalarga oid axborotlar yoritilishida OAVlar ehtiyyot choralarini ko'rmasligi kuzatilmoxda. Jinoyat, oilaviy mojaro yoki maktab ichidagi voqealarda bolalar ishtiroki ochiq yoritiladi, ularning suratlari, to'liq ismlari, hatto yashash manzillari ham e'lon qilinmoqda. Bu esa nafaqat xalqaro etik me'yirlarga, balki bolaning huquqiy himoyasiga ham putur yetkazadi. UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan "Media and Children" qo'llanmasida bu kabi holatlarda anonimlik, tasvirni niqoblash va identifikatsiya qilinmaslik bo'yicha qat'iy tavsiyalar mavjud¹⁷.

Yuqoridagi kuzatuvlar asosida aytish mumkinki, O'zbekiston OAVlarida jurnalistik erkinlik tamoyili ko'pincha noto'g'ri talqin qilinmoqda. "Axborot erkinligi" niqobi ostida shaxsiy hayotga doir ma'lumotlar noqonuniy tarzda e'lon qilinmoqda, bu esa jamiyatdagi axborot madaniyatining pasayishiga, huquqiy ong va savodxonlikning zaiflashishiga olib kelmoqda. OAV va kontent yaratuvchilar uchun bu holat faqat axloqiy emas, huquqiy javobgarlikka sabab bo'luvchi omil

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi. (2004). *Shaxsiy hayot daxlsizligi to'g'risidagi qonun. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*. Retrieved from <https://lex.uz/docs/79978>

¹⁵ European Court of Human Rights. (2003). *Peck v. the United Kingdom*. Application no. 44647/98. Retrieved from <https://hudoc.echr.coe.int/eng?i=001-60958>

¹⁶ UNESCO. (2019). *Media Ethics and Global Justice in the Digital Age*. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization. Retrieved from <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000371482>

¹⁷ UNESCO. (2005). *Media and Children: Principles for Ethical Reporting on Children*. Retrieved from https://www.unicef.org/media/70921/file/Guidelines_on_Ethical_Reportng_on_Children.pdf

sifatida baholanishi lozim.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalarining chuqur tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston ommaviy axborot vositalarida jurnalist erkinligi va shaxsiy hayot daxlsizligi o'rtasidagi muvozanat ko'p hollarda axborot beruvchining subyektiv qarorlariga asoslanmoqda. Bu muvozanatning huquqiy kafolatlari mavjud bo'lsa-da, amaliyotda ularning bajarilishi yetarli darajada ta'minlanmagan. Mazkur muammo nafaqat jurnalistlarning huquqiy savodxonligi yetishmaslidan, balki axborot iste'molchilarining madaniyati va talabchanligidan ham kelib chiqadi. Ommaviylik, reyting, ijtimoiy tarmoqdagi "ko'rishlar soni" kabi mezonlar jurnalistning axloqiy pozitsiyasini ortga surib, senzatsiyaga asoslangan yondashuvni ustun qilib qo'yemoqda.

O'zbekistonning milliy qonunchiligidagi jurnalistning erkin faoliyati Konstitutsiyaning 29-moddasi bilan kafolatlangan. Shu bilan birga, 27-moddada shaxsiy hayot daxlsizligi ham fundamental huquq sifatida belgilangan. Ushbu ikki huquq to'qnash kelganda, jurnalistlardan yuqori darajadagi ijtimoiy mas'uliyat va yuridik tushuncha talab qilinadi. Biroq amaliy tahlillar ko'rsatadiki, bu muvozanatga amal qilish ko'pincha shaxsiy tafakkur, baho va axloqiy chegaralar doirasida hal qilinmoqda, bu esa xavfli ijtimoiy tendensiyani shakllantiradi. Ayniqsa, mashhurlik va ommaviylik mezonlari asosida shaxsiy hayot tafsilotlarini oshkor qilish holatlari OAV tomonidan odatiy norma sifatida qabul qilinmoqda.

Xalqaro tajriba bu masalada ancha puxta ishlangan huquqiy mezonlarni taklif etadi. Xususan, Yevropa Inson huquqlari sudi (YIHHS) o'z qarorlarida axborotning jamoatchilik uchun ahamiyatliliqi, shaxsning mashhurlik darajasi, axborot manbasining ishonchliligi va axborot berish uslubi kabi mezonlarni ishlab chiqqan. *Von Hannover v. Germany* ishi misolida sud, shaxs mashhur bo'lsa ham, uning bolasi, sog'lig'i yoki dam olish paytidagi hayoti shaxsiy hayot doirasiga kiradi, deb topdi. Bu yondashuv jurnalistning erkinligi hech qachon insonning fundamental huquqlarini poymol qilish darajasiga chiqmasligi kerakligini anglatadi UNESCO ham bu borada media etikasi tamoyillarini ishlab chiqqan bo'lib,

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

ularning ichida inson sha'ni, zo'ravonlikni targ'ib qilmaslik, ishonchli manbalarga tayanish, maqola mavzusi bilan bog'liq bo'lмаган shaxsiy ma'lumotlarni oshkor qilmaslik kabi normalar mavjud. Biroq, O'zbekistonda bu prinsiplar jurnalistika faoliyatida tizimli tatbiq etilmayapti. Shuningdek, jurnalistlarni tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarida media etikasi va huquqiy javobgarlik bo'yicha amaliy mashg'ulotlarning yetishmasligi, amaldagi jurnalistlarning professional treninglardan o'tmasligi ham mavjud bozor muhitida ushbu muammolarni chuqurlashtirmoqda.

Alohida e'tiborga loyiq jihat — fuqarolik jurnalistikasi va blogerlikning keskin kengayishi natijasida "mas'uliyatsiz axborot berish" holatlari sonining ortib borayotganidir. Blogerlar o'zlarini jurnalist deb atagan holda, na qonuniy cheklovlarga, na etik qoidalarga bo'ysunmaydilar. Ular ijtimoiy media algoritmlarining ko'rinish, izoh va bahsga asoslangan tizimiga moslashgan holda ko'proq "shov-shuvli" kontentga intiladi. Bunday kontent esa, ko'pincha inson daxlsizligini buzgan holda taqdim etiladi. Bu jarayon OAV orqali emas, balki TikTok, Telegram, Instagram kabi platformalar orqali olib borilayotgani huquqiy nazorat mexanizmlarini chetlab o'tmoqda.

Jurnalist erkinligi va shaxsiy hayot daxlsizligi o'rtasidagi bu nozik chiziq, faqat qonun bilan emas, balki ichki axloqiy intizom, jurnalistik madaniyat va jamiyat talabchanligi orqali saqlanishi mumkin. Aks holda, jurnalistikaning asosiy maqsadi — haqiqatni yoritish emas, diqqatni jalb qilish vositasiga aylanish xavfi tug'iladi. Bu esa OAVga bo'lgan ishonchni zaiflashtiradi va fuqarolarning axborotga nisbatan tanqidiy qarashini kuchaytiradi.

XULOSA

Tadqiqot davomida jurnalist erkinligi va shaxsiy hayot daxlsizligi o'rtasidagi muvozanat masalasi O'zbekiston axborot makonida dolzarb, ammo yetarlicha tartibga solinmagan sohaga aylangani aniqlandi. Ommaviy axborot vositalari va blogerlik faoliyatida aynan ushbu ikki konstitutsiyaviy huquqning to'qnashuvi ko'plab huquqiy xatolarga, axborot iste'molchilari orasida madaniy ziddiyatlarga va ishonch inqiroziga olib kelmoqda. Aybsizlik prezumpsiyasi buzilishi, ruxsatsiz foto

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

va videolarning tarqatilishi, mashhurlik ekspluatatsiyasi hamda voyaga yetmaganlarga oid noetik axborotlarning oshkor qilinishi — bularning barchasi OAV sohasida jurnalistik madaniyat va huquqiy mas’uliyatning yetishmasligini ko’rsatadi.

O’zbekiston qonunchiligi, xalqaro huquq me’yorlari va UNESCO hamda Yevropa Inson huquqlari sudi tomonidan ishlab chiqilgan tamoyillar ushbu muvozanatni huquqiy jihatdan tartibga solish imkonini beradi. Ammo amaliyotda bu huquqiy me’yorlar yetarli darajada tatbiq etilmayapti, ayniqsa fuqarolik jurnalistikasi va raqamli platformalardagi kontent yaratuvchilar faoliyati ustidan nazorat mexanizmlari zaif.

Shu bois, quyidagi xulosalar ilgari suriladi: birinchidan, jurnalist va blogerlar uchun huquqiy va etik o‘quv-trening dasturlarini joriy etish zarur; ikkinchidan, OAV monitoring tizimlarini kuchaytirish, shuningdek, senzatsion xabarlar uchun axloqiy va huquqiy javobgarlikni oshirish lozim; uchinchidan, axborot iste’molchilarining o‘zları ham huquqiy madaniyatni oshirishi va tanqidiy fikrlash asosida axborot tahliliga yondashishlari kerak.

Tadqiqot yakunlari shuni ko’rsatadiki, jurnalist erkinligi va shaxsiy hayot daxlsizligi o‘rtasida to‘g‘ri muvozanatni saqlash — nafaqat qonunchilik, balki madaniyat va ijtimoiy ong darajasidagi masaladir. Bu muvozanatni tiklash orqali O’zbekistonda axborot maydonining sog‘lom, ishonchli va mas’uliyatlari shakllanishiga erishish mumkin bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Jamolov, J. (2012). *Chet til o’qitish metodikasi*. O‘qituvchi.

UNESCO. (2019). *Media Ethics and Global Justice in the Digital Age*. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization.
<https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000371482>

O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (1992). *O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi* (27-modda). Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
<https://lex.uz/docs/100841>

European Court of Human Rights. (2004). *Von Hannover v. Germany*. Application

no. 59320/00.

<https://hudoc.echr.coe.int/eng?i=001-61553>

Rasulov, H. (2023). O‘zbekiston jurnalistikasida huquqiy savodxonlik muammolari. *OAV va Huquq jurnali*, 2(4), 52–59.

Berdiev, A. (2022). *Ommaviy axborot vositalari va fuqarolarning huquqiy madaniyati*. Toshkent: Adolat nashriyoti.

European Court of Human Rights. (2004). *Von Hannover v. Germany*. Application no. 59320/00. Retrieved from <https://hudoc.echr.coe.int/eng?i=001-61553>

European Court of Human Rights. (2016). *Baka v. Hungary*. Application no. 20261/12. Retrieved from <https://hudoc.echr.coe.int/eng?i=001-161304>

European Court of Human Rights. (2014). *Mammadov v. Azerbaijan*. Application no. 15172/13. Retrieved from <https://hudoc.echr.coe.int/eng?i=001-144124>

Rasulov, H. (2023). O‘zbekiston jurnalistikasida huquqiy savodxonlik muammolari. *OAV va Huquq jurnali*, 2(4), 52–59.

UNESCO. (2019). *Media Ethics and Global Justice in the Digital Age*. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization. Retrieved from <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000371482>

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (1992). *O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi* (26-modda). Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. Retrieved from <https://lex.uz/docs/100841>

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. (1994). *JPK – Aybsizlik prezumpsiyasi* (23-modda). Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. Retrieved from <https://lex.uz/docs/111457>

O‘zbekiston Respublikasi. (2004). *Shaxsiy hayot daxlsizligi to‘g‘risidagi qonun*. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. Retrieved from <https://lex.uz/docs/79978>

European Court of Human Rights. (2003). *Peck v. the United Kingdom*. Application no. 44647/98. Retrieved from <https://hudoc.echr.coe.int/eng?i=001-60958>

UNESCO. (2019). *Media Ethics and Global Justice in the Digital Age*. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization. Retrieved from

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

<https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000371482>

UNESCO. (2005). *Media and Children: Principles for Ethical Reporting on Children.* Retrieved from

https://www.unicef.org/media/70921/file/Guidelines_on_Ethical_Reportin g_on_Children.pdf

European Court of Human Rights. (2004). *Von Hannover v. Germany.* Application no. 59320/00. Retrieved from <https://hudoc.echr.coe.int/eng?i=001-61553>

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (1992). *O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi* (27- va 29-moddalar). Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. Retrieved from <https://lex.uz/docs/100841>

UNESCO. (2019). *Media Ethics and Global Justice in the Digital Age.* United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization. Retrieved from <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000371482>

UNESCO. (2005). *Media and Children: Principles for Ethical Reporting on Children.* Retrieved from
https://www.unicef.org/media/70921/file/Guidelines_on_Ethical_Reportin g_on_Children.pdf

Rasulov, H. (2023). O‘zbekiston jurnalistikasida huquqiy savodxonlik muammolari. *OAV va Huquq jurnali*, 2(4), 52–59.

Berdiev, A. (2022). *Ommaviy axborot vositalari va fuqarolarning huquqiy madaniyati.* Toshkent: Adolat nashriyoti.